TARIX FANIDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING PEDAGOGIK QARASHLARINI O‘RGANISH IMKONIYATLARI

Yuldasheva Mastura Islamovna
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Ijtimoiy fanlar” fakulteti o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.18059703

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Tarix fanida Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda o‘rta asr Sharq uyg‘onish davri allomalari hamda keyingi davr ma’rifatparvarlarining ta’lim-tarbiya haqidagi g‘oyalari chuqur o‘rganiladi. Tadqiqotda Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Davoniy kabi mutafakkirlarning ilm-fan, ma’rifat va inson kamoloti haqidagi konseptual qarashlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Maqolada tarixiy-qiyosiy va manbashunoslik yondashuvlari qo‘llanib, pedagogik merosning shakllanishiga ijtimoiy-madaniy omillar ta’siri ochib beriladi. Shuningdek, mutafakkirlarning ta’lim tizimiga doir fikrlari zamonaviy pedagogika nazariyalari bilan bog‘lab ko‘rib chiqilib, ularning bugungi ta’lim jarayonida amaliy ahamiyati asoslab beriladi.

KALIT SO‘ZLAR

Meros, pedagogik qarash, nazariya, falsafiy kontsept, primar matn, Diskurs tahlili, Komparativ, manbashunoslik, yondashuv, tarbiya.

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена анализу педагогических воззрений восточных мыслителей в науке истории, где подробно изучаются идеи средневековых мыслителей эпохи Восточного Ренессанса, а также последующих просветителей о воспитании и обучении. В исследовании на основе исторических источников рассматриваются концептуальные взгляды таких мыслителей, как Абу Наср Фараби, Алишер Навои, Давани, относительно науки, просвещения и

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

наследие, педагогические взгляды, теория, философская концепция,первичный текст, дискурс-анализ, компаратив, источниковедение, подход, воспитание.

совершенствования личности.В статье применены историко-сравнительный и источниковедческий подходы, раскрывающие влияние социально-культурных факторов на формирование педагогического наследия. Кроме того, педагогические идеи мыслителей сопоставляются с современными теориями педагогики, обосновывается их практическая значимость в современном образовательном процессе.

ABSTRACT

This article is devoted to the analysis of the pedagogical views of Eastern thinkers within the field of history, providing an in-depth study of the ideas of medieval scholars of the Eastern Renaissance era, as well as later enlighteners, concerning education and upbringing. Based on historical sources, the research examines the conceptual perspectives of such thinkers as Abu Nasr al-Farabi, Alisher Navoi, and Davani regarding science, enlightenment, and the perfection of the individual.

The article employs historical-comparative and source-critical approaches to reveal the influence of socio-cultural factors on the formation of pedagogical heritage. In addition, the pedagogical ideas of these thinkers are compared with modern pedagogical theories, and their practical significance for contemporary educational practice is substantiated.

KEY WORDS

heritage, pedagogical views, theory, philosophical concept, primary text, discourse analysis, comparative studies, source studies, approach, upbringing.

KIRISH

Tarix fani nafaqat insoniyat svilizatsiyasining o‘tmishdagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlarini o‘rganadi, balki bugungi ta’lim-tarbiya tizimi uchun ham boy ma’naviy-ma’rifiy meros manbai bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari zamonaviy ta’lim nazariyasi va amaliyotini boyitishda beqiyos ahamiyatga ega. Abu Nasr Farobiy, Imom al-Buxoriy, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy kabi allomalar inson tarbiyasi, shaxs kamoloti, ilm-ma’rifatning ijtimoiy rivojlanishdagi o‘rni haqida ilgari surgan g‘oyalari bilan jahon pedagogik tafakkuri xazinasini boyitgan. Ularning qarashlarida

shaxsni tarbiyalash, aqliy va axloqiy yetuklikni uyg‘un rivojlantirish, ta’limni amaliy faoliyat bilan uzviy bog‘lash kabi tamoyillar asosiy o‘rinni egallaydi.

Bugungi kunda milliy ta’lim tizimini takomillashtirish jarayonida Sharq mutafakkirlarining g‘oyaviy merosini chuqur o‘rganish, uni yosh avlodning dunyoqarashi va ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga tatbiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat tarixiy manbalarni tahlil qilishni, balki o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy sharoitini, ma’naviy-ma’rifiy hayotini, ta’lim tizimining shakllanish omillarini ilmiy asosda o‘rganishni talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada tarix fanining metodologik imkoniyatlari asosida Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlarini tahlil qilish, ularning ta’lim-tarbiyaga oid g‘oyalarini hozirgi zamon pedagogik yondashuvlari bilan qiyoslash va amaliy ahamiyatini yoritish maqsad qilib olinadi. Mazkur yondashuv milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish, shuningdek, ta’lim jarayonini ma’naviy-ma’rifiy jihatdan boyitishda muhim ilmiy-amaliy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Asosiy qism: Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari — nafaqat diniy yoki falsafiy kontseptlar majmui, balki o‘sha davr ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sharoitida shakllangan ta’lim-tarbiya amaliyotining nazariy asosidir. Ularni tushunish va zamonaviy pedagogik yondoshuvlar kontekstida qayta talqin qilish uchun primar manbalarni — mualliflarning asl risolalari, dostonlari va ilmiy asarlarini filologik-kritik metodlar bilan tahlil qilish zarur.

Al-Farobiy pedagogik nuqtai nazardan “komil inson” (al-insān al-kāmil) obrazini markazga qo‘yadi. Uning siyosiy-falsafiy asarlari-xususan “Madina al-Fadila” va mantiqiy risolalarida-ta’limni nafaqat bilim berish, balki axloqiy va ma’naviy tarbiya jarayoni sifatida ko‘rish g‘oyasi takrorlanadi. Al-Farobi ta’lim vazifasini jamiyatning umumiy hayotiga moslab ko‘radi: shaxsning aql-ruhiy taraqqiyoti uning salohiyatini amalga oshirishga xizmat qilishi kerak. Matndagi didaktik tavsiyalar-ma’ruza va munozara, bosqichma-bosqich mantiqiy ta’lim, nutq va tilga e’tibor-zamonaviy didaktik tamoyillar bilan ko‘plab umumiyliklarga ega. Tarixiy kontekstda Al-Farobiy fikrlari Abbosiy olimiy muhit va madaniy-siyosiy talablar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u yerda ta’limning ham davlat manfaatlari, ham shaxsiy kamolotga xizmat qilish vazifasi mavjud edi. [1,2]

Alisher Navoiy ijodiy merosi (masalan, *Mahbub ul-Qulub*, *Lison ut-Tayr* va boshqa nasriy-she’riy asarlar) o‘quv-tarbiyaviy funksiyani mukammal ifodalaydi. Navoiy adabiy asarlar orqali axloqiy tarbiya, o‘zini tarbiyalash va ma’naviy kamolot masalalarini jamoatchilikka yetkazishga intilgan. U o‘qituvchilarning axloqiy namunasi, ota-onalar va jamiyatning tarbiyaviy roli haqida aniq fikrlar bildiradi.

Tarixiy-manbaviy tahlil Navoiy qarashlarining o‘z davri ijtimoiy ahvoliga javob ekanligini va adabiyot orqali tarbiya usullarining ahamiyatini ko‘rsatadi. [4]

Davoniy asarlarida (falsafiy va diniy risolalar) shaxsning ma’naviy kamoloti va ilmiy bilim o‘rtasidagi uyg‘unlik ta’kidlanadi. Tarixiy manbalardan ko‘rinishicha, uning pedagogik qarashlari kamroq sistematik bo‘lsa-da, axloqiy-ma’rifiy ta’limni ilm-haqida bilish bilan bog‘lashga intiladi. Davoniy ta’limni jamiyatning ma’naviy sog‘lomligini ta’minlovchi vosita deb hisoblaydi.

Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlarini o‘rganishda turli xil usullardan foydalanish mumkin.

Primar matn tahlili (filologik-kritik nazar) - mutafakkirlarning asl asarlari (arabcha, forscha, turkiy tillarda) o‘qilishi, variatsiyalar va tarjimalar solishtirilishi; asarlarning turli nusxalaridagi farqlar aniqlanishi.

Tarixiy-kontekstual metod - ta’lim nazariyasi va amaliyoti qaysi ijtimoiy-madaniy, siyosiy va iqtisodiy sharoitlarda shakllanganini o‘rganish; mutafakkirning epistemologik, axloqiy, diniy, ma’naviy holati kontekstida pedagogik qarashlarining izohini topish.

Diskurs tahlili - mutafakkirlarning asarlarida ta’lim, tarbiya, axloq kabi tushunchalarning ishlatilishi, stilistik (til uslubi), ma’no-lamalarini (semantik) tahlil qilish.

Komparativ metod- Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlarini zamonaviy pedagogika nazariyalari (masalan, konstruktivizm, humanistik pedagogika, axloqiy tarbiya nazariyalari) bilan qiyoslab ko‘rib chiqish.

Xulosa: Tarix fanida Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlarini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘rta asr Sharq uyg‘onish davri allomalari va keyingi davr ma’rifatparvarlarining ta’lim-tarbiya haqidagi merosi nafaqat tarixiy, balki zamonaviy pedagogika uchun ham bebaho manba hisoblanadi. Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy kabi mutafakkirlarning inson kamoloti, ma’naviy-axloqiy tarbiya va ilm-fan rivoji borasidagi konseptual qarashlari hozirgi ta’lim paradigmasini boyitishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Maqolada qo‘llanilgan tarixiy-qiyosiy va manbashunoslik yondashuvlari pedagogik merosning shakllanish jarayonini chuqur tahlil qilish, ularning ijtimoiy-madaniy omillar bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlash imkonini berdi. Bu esa Sharq pedagogik tafakkurini nafaqat tarixiy davr kontekstida, balki bugungi kunda dolzarb bo‘lgan ta’lim islohotlari bilan uyg‘unlikda talqin qilish zarurligini ko‘rsatdi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, Sharq mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy g‘oyalari hozirgi zamon tarbiyaviy jarayonlarini yanada takomillashtirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish hamda yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda keng imkoniyatlar yaratadi. Demak, tarix

fanida bu merosni tizimli o‘rganish kelajak avlod uchun boy ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2017.
2. Al-Farabi. *On the Perfect State.* Translated by R. Walzer. – Oxford: Oxford University Press, 1985.
3. Alisher Navoiy. *Lison ut-Tayr.* – Toshkent: Fan nashriyoti, 2016.
4. Alisher Navoiy. *Mahbub ul-Qulub.* – Toshkent: Yangi Asr Avlodi, 2011.
5. M.Yo‘ldoshev. *Sharq mutafakkirlari pedagogik merosi: manbashunoslik tahlili.* – “Pedagogika” jurnali, №4, 2021, 45–60-betlar.